

Oliy Ta'lim Muassasalarida Masofadan O'qitish Jarayonini Takomillashtirish

Imomova Shafolat Mahmudovna¹, Qobilov Komil Hamidovich²

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim muassasalarida masofadan o'qitish jarayonini takomillashtirish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, masofaviy o'qitish, pedagogik tizim, masofali ta'lim, internet, multimedia.

Masofaviy o'qitish masofaviy ta'lim kompleksidagi jarayondir. Masofaviy o'qitishning va masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik tizimi, zarurligi va maqsadi mavjudligidir.

Dunyoda ko'pgina universitetlarda va o'quv markazlarida masofaviy ta'lim mavjud. Kerakli manzilni Internetdan topish mumkin. Manzilga kirib bu o'qish talabasi bo'lish uchun maxsus shaklni to'ldirish zarur. Odatda avval kursning va o'qish tartibi tavsifi bilan tanishib chiqish mumkin. Keyin shakldagi satrlarni to'ldirib, kredit kartochka raqamini kiritish zarur. Kursga kirish tartiblarini turlicha bo'ladi, bu mutaxxassilikka bog'liq.

O'qish tartibi esa asosan quyidagicha: o'qituvchi kurs bilan tanishtiradi va topshiriqlar beradi. Talaba ko'rsatilgan manbalar bilan ishlab topshiriqlarni bajaradi va o'qituvchiga yuboradi. O'qituvchi uni tekshirib, javobni talabaga qaytaradi. Zarur holda ko'rsatmalar beradi. Shu tartibda kurs mavzulari o'rganib chiqiladi. Muzokara asosan elektron pochta orqali amalga oshiriladi. Telefon tarmog'idan ham ba'zan foydalaniladi. Bosma o'quv materiallari pochta orqali yuboriladi. O'qish jarayonida talaba darsliklardan, elektron kutubxona va darsliklardan, elektron forumlardan, vidoekonferentsiyalardan foydalanadi. Bunda o'qish individual shaklda olib boriladi va o'qituvchi o'quvchining qobiliyati va xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitadi. Bu individuallik talabada qiziqish uyg'otadi va uni o'qishda aktivlikka rag'batlantiradi.

Masofaviy ta'lim - masofaviy o'qitishga asoslangan ta'lim. Masofaviy o'qitish – o'zaro ma'lum bir masofada Internet texnologiya yoki boshqa interaktiv usullar va barcha o'quv jarayonlari komponentlari – maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakllar va o'qitish usullariga asoslangan talaba va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat. Masofaviy o'qitish tizimi – masofaviy o'qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o'qitish tizimi. Barcha ta'lim tizimlari singari masofaviy o'qitish tizimi o'zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega.

Masofaviy ta'lim turlari quyidagicha: **Ma'ruza** (lot. Lectio dan o'qish) - har qanday muammo, metod, mavzu va boshqalar bo'yicha materialni og'zaki bayon qilish. Masofaviy o'qitish tizimidagi ma'ruza darsi talaba mustaqil ravishda o'rganishi kerak bo'lgan kerakli o'quv materiallari bilan (bosma yoki elektron) sahifalar to'plamidir. Ma'ruza ko'pincha audio yoki videofayl shaklida taqdim etiladi. Ikkala holatda ham talaba va o'qituvchi o'rtasida jonli aloqa mavjud emas. Biroq, audio, videokonferentsiyalarda "jonli" ma'ruza tashkil qilinadi. Ko'pincha multimediyaga ma'ruzalarining har bir qismi oxirida unda ko'rsatilgan material asosida savol beriladi. Ma'ruzaning keyingi qismiga shu savollarga to'g'ri javob berish orqaligina o'tiladi. **Seminar** - bu nazariya majburiy ravishda amaliyotga asoslangan o'qitish shakli. asofadan o'qitish bo'yicha seminarlar asinxron va sinxron tarzda o'tkazilishi mumkin. Ular elektron munozaralardir (Internet-forumlar). Muhokamadan oldin tayyorgarlik bosqichi darhol boshlanadi. Darslar boshlanishidan bir hafta oldin talabalar seminar uchun topshiriq va o'qituvchidan o'qish uchun adabiyotlar ro'yxatini oladilar. Asinxron seminarining afzalligi

¹ Buxoro davlat universiteti Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasida dotsenti (Buxoro, O'zbekiston)

² Buxoro davlat universiteti Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasida o'qituvchisi (Buxoro, O'zbekiston)



shundaki, talaba suhbatning rivojlanish tarixini o`rganayotganda istalgan vaqtda munozaraga qo`shilishi mumkin. Biroq, masofadan o`qitish bo`yicha seminarlarni on-layn rejimida o`tkazish samaraliroq. Buning uchun barcha seminar ishtirokchilari bir vaqtning o`zida onlayn bo`lishi kerak. Seminarlar veb-konferensiyalar shaklida ham o`tkazilishi mumkin. Bunday mashg`ulotlar an`anaviy yuzma-yuz mashg`ulotlardan deyarli farq qilmaydi, chunki ishtirokchilar bir-birlarini kompyuterlarining monitorlarida ko`rishadi. **Mustaqil ish** - bu talabalar tomonidan o`qituvchining bevosita ishtirokisiz, lekin buning uchun maxsus belgilangan vaqtda uning ko`rsatmasi bilan o`qish shakli. Masofaviy o`qitish bilan ushbu o`quv shaklidan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Talabalar nafaqat adabiyotlar bilan, balki o`quv dasturlari, testlar, ma`lumot bazalari bilan ham mustaqil ishlashadi. lar ma`ruzalarni mustaqil ravishda o`rganadilar, seminarlarga va amaliy ishlarga tayyorlanadilar. Talabalarni metodik materiallar bilan yetarli darajada jihozlash sharoitida mustaqil ishlarning ulushi butun semestr yukining uchdan ikki qismini tashkil qilishi mumkin. **Ilmiy-tadqiqot ishlari** - talabalarning ilmiy farazlarni sinash, qonuniyatlarni aniqlash, yangi bilimlarni egallash va mavjudlarini kengaytirish maqsadida tadqiqotlar o`tkazishdan iborat ishi. **O`quv konsultatsiya** - bu odatda o`qituvchi va talabalar o`rtasida suhbat shaklida o`tkaziladigan individual yoki guruh mashg`ulotlari. Bunday darslarning aqsadi o`quvchilar bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirishdir.

Masofaviy ta`limning har qanday shakli bilimlarni nazorat qilishni o`z zimmasiga oladi. Asosan, bu testlar yordamida amalga oshiriladi, chunki bu usul talabaning ta`lim muassasasida bo`lishini talab qilmaydi va test topshiriqlarini to`g`ri tuzish bilan dastur talabalarining haqiqiy bilimlarini aks ettiradi.

Masofaviy o`qitishning kontseptual asoslari: Masofaviy o`qitish tizimi uzluksiz ta`lim tizimida kunduzgi, sirtqi, eksternat o`qitish tizimlari qatorida ko`rilishi kerak. Pedagogikaning asosiy tamoyillarini o`zida aks ettiradigan shaxsiy yo`naltirilgan yondoshuv dunyo pedagogik jamoalari tomonidan zamonaviy ta`lim tizimlarining barcha shakllari uchun tan olingan.

O`qitish markazida o`qitish jarayoni emas, talabaning shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatidan kelib chiqadigan bilish faoliyati, o`rganish turadi. O`qituvchining faoliyati talabalarning mahsuliy faoliyatining tashkil etilishiga yo`naltirilgan bo`lishi kerak. Binobarin, ta`lim tizimining asosiy maqsadi shaxsning intellektual va ma`naviy rivojlanishi, tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish, axborotlar bilan ishlashni o`rgatishdir.

Masofaviy o`qitishdagi shaxsiy yo`naltirilgan yondoshuv Internet taqdim etayotgan ajoyib imkoniyatlarga suyangan holda o`quv jarayonining ta`lim darajasini sezilarli oshiradi. Masofaviy o`qitish jarayonini shunday pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish lozimki, talabalarning quyidagi imkoniyatlari shakllansin: aniq ilmiy yoki amaliy muammolarni yechishga tadbir etadigan zaruriy fundamental bilimlarni olish; bilish faoliyati jarayonida kelib chiqqan muammolarni do`stlar bilan hal etish; qo`yilgan masalalarni yechish uchun zarur bo`lgan qo`shimcha axborot manbalari bilan ishlash; barcha mavjud muammolarni bartaraf etish, egallangan bilimlarni amaliyotda qo`llash; Internet texnologiyalardan foydalangan holda mustaqil kuzatishlar olib borish; o`z bilim darajalarni, erishilgan yutuqlarini baholash imkoniga ega bo`lish, o`z faoliyatini to`g`rilay olish.

Zamonaviy kompyuter didaktik dasturlari (elektron darsliklar, kompyuter topshiriqnomalari, o`quv qo`llanmalari, gipermatnli axborot-ma`lumot tizimlari, arxivlar, kataloglar, ma`lumotnomalar, entsiklopediyalar, sinovchi va shakllantiruvchi trenajyor dasturlar) bilimlarning ko`p sohalari kesishuvidan kelib chiqqan multimediyalar– texnologiyalari asosida yaratiladi. Rangli kompyuter animatsiyalaridan, yuqori ishlanadi. Sifatli grafika, videokator, sxemali, formulali, spravochnik (yordamchi prezentatsiyalari)dan foydalanish – o`rganilayotgan kursni dinamik tasvirlarning ketma-ket yoki armoqlangan zanjiri tarzida namoyish etish imkonini beradi. Multimediya – tizimlar didaktik materialni uzatishni yuqori darajada qulay va ko`rgazmali bo`lishini ta`minlaydi, bu o`rganishga qiziqishni orttirish va bilimlardagi bo`shliqlarni to`ldirishga xizmat qiladi.

Masofaviy o`qitishning pedagogik texnologiyalari– tanlangan o`qitish konsepsiyasiga asoslangan masofaviy ta`limning o`quv-tarbiyaviy jarayonini ta`minlovchi o`qitish metodi va uslublar majmuasidir.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. D. Xodjayev, A.K.Ahmedov “Masofaviy ta’lim platformasida o`quv resurslarini yaratish va undan foydalanish”.- T:2020
2. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. Учебные методы организации спортивно оздоровительных мероприятий в образовательных учреждениях // ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ 2021. № 9 (112). Часть 2. С.38-41.
3. Имомова Ш.М., Исмоилова М.Н. Вычисление наибольшего собственного значения матрицы и соответствующего ей собственного вектора в среде Mathcad// АCADEMY. № 6(57), 2020. С9.
4. Исмоилова М.Н., Имомова Ш.М. Интерполяция функции// ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ 2020. № 3 (81). Часть 3. С.5-
5. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. Работа с криптовалютой//UNIVERSUM: ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ. №10(91), 2021. С. 18-21.
6. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. РОЛЬ КЕЙС-МЕТОДА НА УРОКАХ МАТЕМАТИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ // Вестник науки и образования, 2022. № 4 (129). Часть 2. С.76.
7. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ В ОБРАЗОВАНИИ//UNIVERSUM: ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ. №10(103), 2022. С. 30-32.
8. Бердиева С.М., Имомова Ш.М. Использование инновационных технологий на уроках информатики// Наука, техника и образование. 2018. № 10 (51). С. 28-31.
9. Shafoat IMOMOVA., Gulzira MIRZOYEVA. INTELEKTUAL TIZIMLARIDAN FOYDALANISH//Pedagogik mahorat. Maxsus son(2021 yil, derkabr),2021, С.230-233.
10. IMOMOVA Shafoat Mahmudovna., BOTIROVA Nigora Qoyirovna. Google classroom - “Virtual sinf” texnologiyasi//Pedagogik mahorat. Maxsus son(2022 yil, derkabr),2022, С.81-85.



Impact Factor : 9.2

**MIASTA
PRZYSZŁOŚCI**

CERTYFIKAT

OF APPOINTMENT

TEN CERTYFIKAT JEST DUMNIE PREZENTOWANY

Qobilov Komil Hamidovich

Do publikacji artykułu zatytułowanego:

**Oliy Ta'lim Muassasalarida Masofadan O'qitish Jarayonini
Takomillashtirish**

in Volume 31 (2023) of **Miasto Przyszłości**



Google Scholar



Laeq Janjua
Poznan university of economics
and business

